

**MAKTAB O'QUVCHILARINI DARSDAN  
BO'SH VAQTLARIDA TO'GARAKLARGA JALB ETISH  
ORQALI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH**

**Umarova Fotima Abduraximovna**

TDPU «Texnologik ta'lismetodikasi» kafedrasidotsent v.b., Phd.

e-mail: [umarova-fotima@mail.ru](mailto:umarova-fotima@mail.ru).

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada bugungi kunda umumiy o'rta ta'lismaktablarida taxsil olayotgan o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish to'g'risida so'z borgan. O'quvchilarni texnologiya fanlari orqali kasbga yo'naltirish to'g'risida ko'rsatmalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** mehnatsevarlik, iqtisodiy – tejamkorlik, ta'lism-tarbiya jarayoni

Respublikamiz mustaqillika erishgandan so'ng ta'limi isloh qilish bo'yicha ko'pgina qaror va qonunlar qabul qilindi, ularda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish vazifalari ham yetarlicha o'z ifodasini topmoqda. Shu jumladan Xalq ta'limi vazirligining o'quvchilarni kasb – hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirishning yangi konsepsiysi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan 2002 yil 10 oktabrdagi 153-sonli buyrug'i asosida e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad – o'sib kelayotgan yosh avlodni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashdir. Insoning ilmiga bo'lgan chanqoqligini qondiruvchi birinchi ziyo chashma bu maktabadir. Maktabda o'quvchi shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Unda dastlabki kasbiy hissiyotlar yuzaga keladi. Bular mehnatsevarlik, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, o'z ishini rejalahtirish va nazarat qila bilish, ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish, iqtisodiy – tejamkorlik, sabr – toqatlilik, talabchanlik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usuli tanlab ola bilish hamda vaqtini tejash va shu kabilardir. Bolalarni kasblar olamiga asta – sekin olib kiruvchi shaxs pedagog, ularni shu olamda mo'ljal olishga o'rgatishi zarur.

Umumta'lismaktablarining o'quvchilarini texnologik ta'lismashg'ulotlari va to'garaklarda kasb-hunarga yo'llash yoshlarni hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, umumta'lismfanlarining barchasida o'quvchilarni kasb-hunarlarga yo'llash amalga oshiriladi. Texnologik ta'lismarslari va to'garak mashg'ulotlari ta'lism-tarbiyaning bu jihatini amalga oshirishda asosiy o'rinni egallaydi.

O‘quvchilarning individual fazilat va sifatlarini shakllantirish va o‘quvchilarga kasbiy maslahat, kasbiy va iqtisodiy tarbiya berish, pedagogik-psixologik tashhis ishlarini amalda tadbiq etish quyidagi uch bosqichdan iborat:

1-bosqich. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish, kasb-hunarga yo‘llash ishlarini takomillashtirishdan.

2-bosqich. O‘quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, ehtiyojlariga qarab darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish, o‘quvchilarni darsdan tashqari ishlarga tanlovlardan asosida qabul qilish, individual va tabaqalashtirilgan metodlardan foydalanish.

3-bosqich. Shaxs sifatini tahlil qilish va tashxis qilish metodikasini amalga oshirish.

Texnologik ta’lim darslaridan tashqari mashg‘ulotlarning vazifalari quyidagicha:

-texnologik ta’limda o‘quvchilar olgan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash, umumlashtirish va kengaytirish;

-unumli mehnatga asoslangan ijodiy faoliyatga o‘quvchilarni jalb etish;

-o‘quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;

-o‘quvchilarni xalq xo‘jaligining zamонавије ehtiyojlari asosida kasb-hunar tanlashga tayyorlash;

-mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llar ekanmiz, ularda kasb-hunarlar haqida to‘g‘ri tasavvurlar berishimiz kerak. O‘quvchilarni qobiliyati, qiziqish va kasbga bo‘lgan moyilliklariga qarab rivojlantiruvchi shakllardan foydalanish o‘smirlarda “Men kim bo‘lishni xohlayman” degan savolga javoblarni onglerida shakllantirish demakdir. Aksariyat o‘quvchilarning kasb tanlashdagi asosiy xatoliklari u yoki bu kasb kishisiga munosabat, kasbga bo‘lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar. O‘quv fanining kasb bilan bir xil deb tushunilishi, kasbning tashqi jihatni bilangina qiziqish, mehnatning aqliy mazmuni va ba’zi kasblarga, ommaviy kasblarda o‘sish imkoniyatlari haqidagi noto‘g‘ri tasavvurlarning mavjudligi o‘quvchilarning yana bir kamchiliklaridir. Ko‘p hollarda o‘quvchilar o‘z qobiliyatlariga to‘g‘ri baho bera olmaydilar, u yoki bu kasbga zid bo‘lgan o‘z jismoniy hususiyatlari va nuqsonlarini nazar-pisand qilmaydilar, o‘rtoqlarining ta’siri bilan kasb tanlash, tasodifiy sabablar ta’siri ostida kasb tanlash hollari uchraydi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ish o‘quvchilarni kasb-hunarni ongli ravishda tanlashga, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarda ularda ishga qiziqishni shakllantirishga ko‘p jihatdan yordam beradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda olib borilayotgan kasbga

yo‘naltirish ishida o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Birinchi bosqich (I-IV sinf o‘quvchilari bilan ishlash) – moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga bo‘lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o‘quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo‘lishni, eng muhimi-jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo‘lishni, kasb-hunar egasi degan nomni xurmat qilishni, qo‘lidan keladigan o‘z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag‘ishlashga va bundan ma’naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyuştirish va eng ommalashgan kasblar to‘g‘risida qishloq maktablarining o‘quvchilari uchun fermer xo‘jaligida, shahar maktablarining o‘quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlari haqida suhbatlar tashkil qilish ko‘zda tutildi.

Ikkinci bosqich (V-VII sinf o‘quvchilari bilan ishlash) – Biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan qiziqish, odatda, kasbga bo‘lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichda kasbga yo‘naltirish sohasida olib borilayotgan ishda o‘quvchilarda ish turlarini bilishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish muhimdir. Kasbga yo‘naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga oid sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, viktorinalar, o‘yinlar katta ro‘l o‘ynashi lozim. Bu bosqichda o‘quvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo‘naltirish ham boshlanadi.

Uchinchi bosqich (asosan VIII-IX sinf o‘quvchilarini qamrab oladi)-bu bosqichda o‘quvchilar o‘z kuchlarini aniq mehnatda tekshirib ko‘radilar, o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O‘quvchilar bu bosqichda o‘z kasbiy niyatlarini birmuncha umumiyyatli kasblar bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich aniq kasbni tanlash, uni o‘zlashtirish yo‘llarini belgilash bilan tugaydi.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng hukumatimiz xalq amaliy san’ati va hunarmandchiliga alohida e’tibor berib kelmoqda. Hozirgi kunda maktablarda, xususan texnologik ta’lim darslari, mashg‘ulotlarida, to‘garaklarda «ustoz» va «shogird» an’analari tiklanib, davom ettirilmoqda.

Kuzatishlarimizdan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, ko‘pgina o‘quvchi qizlar kashtachilik, quroqchilik, zardo‘zlik, o‘g‘il bolalar esa naqqoshlik, yog‘och va ganch o‘ymakorligi, misgarlik kabi xalq amaliy san’ati va hunarmandchiliga xayrihohdirlar. Shuning uchun ular darslarda amaliy mashg‘ulot paytlarida xalqimizning nodir hunarmandchilik sohalari bilan bog‘liq bo‘lgan savollar beradilar. Ana shularni e’tiborga olgan holda mакtabning texnologik ta’lim to‘garagida milliy

amaliy san'at va xalq hunarmandchiligi sohalari o'rgatilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Sinfdan tashqari sharoitda olib boriladigan ishlar o'quvchilarining qiziqishi, xohish va istaklari asosida tuzilsa qo'yidagi natijalar qo'lga kirtiladi:

- o'quvchilarining ahloqiy sifatlari boyiydi, ularning tafakkur darajasi kengayadi, ularda ma'lum kasb-hunar asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttiradi;
- o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligi yuzaga keladi;
- o'quvchi-yoshlarning dunyoqarashi kengayib, ularda ijodiy mehnat qilish tuyg'usi tarbiyalanadi.
- o'quvchilarda shaxsiy ehtiyoji va qiziqishlari borasidagi, shuningdek, jamiyat talablariga javob bera oladigan kasblarni tanlash istagi yuzaga keladi.

Sinfdan tashqari sharoitda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari qo'yidagi talablar asosida o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- sinfdan tashqari to'garak ishlarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda, o'quvchilarining qiziqishi, ehtiyoji, hohishi, yosh xususiyatlari, ijtimoiy tayyorgarlik darajasi hamda tajribasi hisobga olinishi zarur;
- sinfdan tashqari sharoitda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish to'garak ishlarini tashkil etishda ularning mustaqil faoliyat yuritishlari, ijodiy fikrlashlariga erishish muhim;
- o'quvchilar tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlarini alohida qayd etib pedagog, ularni rag'batlantirishi hamda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatishlari uchun imkoniyat yaratishga alohida ahamiyat berishi maqsadga muvofiqli.

Dunyodagi kasblar, hunarlar, ularning sir asrorlari bilan tanishtirish, qadim otabobolarimiz shug'ullangan turli xil hunarmandchilik naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, beshikchilik, pichoqchilik, miskorlik, kashtachilik, etikdo'zlik, do'ppi tikish, zardo'zlik, gilamchilik, kosibchilik, to'quvchilik, zargarlik, kulolchilik kabi kasb hunarlar bilan tanishtirish mehnat darslarida va sinfdan tashqari ishlarda kasb tanlashga yo'llash amalgalash oshiriladi.

To'garakda xalq hunarmandchiliga oid ishlarni tashkil etishda va o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. O'quvchilarining xalq hunarmandchiligining qaysi sohasiga qiziqishini aniqlash.
2. Amaliy mashg'ulot uchun sharoit yaratish, kerakli asbob-uskuna va adabiyotlarni ta'minlash.
3. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarga xalq hunarmandchiliga oid nazariy ma'lumotlarni berish.
4. Mashg'ulotlar davomida «Ustoz» va «Shogird» munosabatlari va muomila madaniyatini singdirib pedagog.

5. Amaliy ishlarning ko‘proq nusxada tayyorlanishiga imkoniyat yaratish. Bunda mакtabga tayyorlangan ishlar kelgusi sinflar qiziqishi, oila uchun tayyorlangan nusxalar mакtab bilan aloqani vujudga keltirish, sotuv uchun tayyorlangan namunalar moddiy manfaatdorlikni yaratishga olib keladi.
6. To‘garak a’zolari tayyorlagan buyumlarni sotishni yo‘lga qo‘yish.
7. Savdodan tushgan daromadni taqsimlash va sarflashni o‘rgatib borish.

O‘quvchilar texnologik ta’lim darslarida olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini darsdan so‘ng to‘garak mashg‘ulotlarida qo‘llaydilar. Ular to‘garak mashg‘ulotlarida erkin ijod qiladilar, turli xil buyumlar tayyorlashga intiladilar.

Kasb hunarga yo‘naltirishni kuchaytirish jarayonini takomillashtirish masalalarini yoritish uchun o‘quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar katta imkoniyatga ega. O‘quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda amalga oshirilayotgan kasb tanlash ishlari tashkiliy shakli va mazmuni bo‘yicha xilma-xildir. Maktab o‘quvchilarining kasb-hunarga qiziqishlarini tarbiyalash shakllariga alohida to‘xtalib o‘tish kerak.

Ekskursiyalar, olimpiadalar, ko‘rik-tanlovlар ommaviy tavsifga ega bo‘lib, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga ijodiy mehnat qilish hissini uyg‘otishga, chuqur va turg‘un o‘quv va kasbiy qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirishga, shu bilan bir qatorda bajargan ishlardan g‘ururlanishga imkon beradigan muhim vositalardir.

O‘quvchilarda turli kasb-hunar asoslарini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishda ta’limning asosiy shakli hisoblangan dars bu boradagi vazifalarining barchasini hal eta olmaydi. Shunday ekan, o‘quvchilarni kasb tanlash, kasb-hunar asoslарini o‘rganishga yo‘naltirish maktabdan tashqari o‘quv ma’naviy-ma’rifiy ishlarda ommaviy axborotlar katta ahamiyatga ega. Ushbu faoliyatлarda o‘quvchi-yoshlarning vaqtini to‘g‘ri tashkil qilish, ularning ma’naviy dunyosini shakllantirish, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qilishi bilan birga ularning dars jarayonida o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish va amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini qaror toptiruvchi jarayon sanaladi.

O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunar asoslарini o‘rganishga qiziqtirish va ma’lum kasb (yoki hunar) yo‘nalishi bo‘yicha mustaqil faoliyat olib borishga tayyorlashda turli kasb egalari ishtirokida tashkil etilgan uchrashuvlar, turli kasblar va ularni mohiyatini yorituvchi badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallar ko‘rgazmasini tashkil etish, mehnat faxriylari va qahramonlarining hayoti va faoliyati to‘g‘risida hikoya qiluvchi materiallarni jamoa asosida o‘rganish, bu boradagi san’at asarlari (kinofilm, teatr va h.k.) bilan tanishtirishni yo‘lga qo‘yish samarali omil bo‘la oladi. Nihoyat o‘quvchilardan so‘rash ko‘rsatganidek bu sohada ommaviy axborot vositalari: vaqtli matbuot, radio, televizionie katta rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirgi kunda maktab ta’limi o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri mehnat ta’lim-tarbiyasi jarayonida o‘quvchilarga hunar o‘rgatishning milliy, an’anaviy asoslarini ishlab chiqarish ularni amaliyatga tadbiq etishdir. Shunday ekan biz pedagog jamoasi o‘quvchilarni nafaqat mehnt darslarida bal’ki turli hil kasbiy to‘garaklarda ko‘nikmalarini oshirishlariga ko‘maklashaylik.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Fotima Abdurakhimovna Umarova / Methodology of Training Students in Design and Modeling of Clothes Using Information Communication Technologies / REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS 2021/6/2
2. Umarov Abdurakhim Vakhitovich, Fotima Abdurakhimovna Umarova / Step towards the Development and New Prospects of Uzbek Higher Education / Journal La Edusci 2020/12/31.
3. X.А.Умаров, З.А.Умарова “Использование электронно-образовательных ресурсов в селях создания образовательной экосистемы”. Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) [Электронный ресурс]: труды Международной научно-технической конференции, Самара: Издательство Самарского научного центра РАН, 2018
4. Захро Абдурахим кизи Умарова Эффективность организации самообразования в электронной образовательной медиа среде. – International conference on Language and Literature Proceeding 2022 С. 44-46
5. Khusan Abdurakhimovich Umarov Innovative methods of improving professional and pedagogical competencies of future teachers. – European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 2020
6. ФА Умарова, ХА Умаров Масофадан ўқитиш, интернет ва бошқа манбалардан фойдаланиш орқали дарс самарадорлигини ошириш. – Сборники конференций НИЦ Социосфера 2016 С. 219-221